

ARAB TILIDA SON VA SANALMISH

Majidova Xamidaxon Mamatkul qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

hamidamajidova373@gmail.com

Umurzakova Oygul Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tili grammatikasidagi muhim mavzulardan biri, har bir talaba og'zaki va yozma nutqlarda ko'p xato qiladigan son va sanalmish mavzusi, ularning kelishiklarda, jinslarda, birlik, ikkilik va ko'plikda turlanishi haqida so'z borgan. Son va sanalmishning arab tilida qanday ifodalanishini bilish orqali arab tili naqadar mukammal, go'zal til ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: a'dad, ma'dud, majrur, mavsuf, sifat, mufrad, tasniya, jam, raf, nasb, jar, tamyiz, mumayyaz.

Аннотация. В данной статье рассматривается одна из важных тем арабской грамматики — числа и исчисляемые слова, которая часто вызывает ошибки у студентов в устной и письменной речи. Раскрыты вопросы склонения чисел и исчисляемых слов по падежам, родам, единственному, двойственному и множественному числу. Знание того, как числа и исчисляемые слова выражаются в арабском языке, позволяет оценить, насколько этот язык совершенен и красив.

Ключевые слова: аддад, ма'дуд, маджрур, маусуф, сифат, муфрад, тасния, джам, раф, насб, джар, тамйиз, мумаййаз.

Annotation. This article discusses one of the important topics in Arabic grammar — numbers and countable nouns — a subject where many students often make mistakes in both spoken and written language. The article addresses the declension of numbers and countable nouns across cases, genders, singular, dual, and plural forms. Understanding how numbers and countable nouns are expressed in Arabic reveals the perfection and beauty of the Arabic language.

Keywords: adad, ma'dud, majrur, mawsuf, sifa, mufrad, tathniya, jam, raf', nasb, jar, tamyiz, mumayyaz.

Son va sanalmish arab tili grammatikasidagi eng muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Biz talabalar og'zaki va yozma nutqimizda ko'p xatoga yo'l qo'yadigan bu mavzu haqida ushbu maqolada muhim ma'lumotlar berilgan.

Eslatma:

- ✓ Adad deganda sanoq sonlar nazarda tutiladi.
- ✓ Ma'dud deganda sanalayotgan narsalar, ya'ni, sanalmish nazarda tutiladi.

- ✓ *Mufrad* ism deganda birlik ismlar tushuniladi.
- ✓ *Jam'* ism deganda ko'plik ismlar tushuniladi.
- ✓ *Muzakkar* deganda erkak jins tushuniladi.
- ✓ *Muannas* deganda ayol jins tushuniladi.
- ✓ *Raf* deganda bosh kelishik tushuniladi.
- ✓ *Nasb* deganda tushum kelishigi tushuniladi.
- ✓ *Jar* deganda qaratqich kelishigi tushuniladi.

1 va 2 adadlari va ularning ma'dudlari hukmi: 1 va 2 sonlari muzakkar va muannaslikda ya'ni jinsda ma'dudi bilan bir xil keladi. Bu sonlarning boshqa sonlardan ajralib turadigan xususiyati shundaki, bu sonlarda ma'dud adaddan oldin keladi. Nahv qoidasiga ko'ra, fqatgina bir va ikki sonlarida, adad sifat, ma'dud mavsuf deb yoki adad ta'kid, ma'dud muakkad deb ataladi.

طَالِبٌ وَاحِدٌ	طَالِبَةٌ وَاحِدَةٌ
طَالِبَانِ اثْنَانِ	طَالِبَتَانِ اثْنَتَانِ

3 dan 10 gacha bo'lgan adadlar ma'dudi bilan jinsda teskari bo'lib keladi. Agar adad muzakkar bo'lsa, ma'dud muannas bo'ladi. Agar adad muannas bo'lsa, ma'dud muzakkar bo'ladi. Bu sonlarning ma'dudi jam' bo'lib jar o'qiladi. Nahv qoidasiga ko'ra, ma'dudlar tamyiz, adadlar esa mumayyaz deb ataladi.

سَبْعٌ لَيَالٍ	تِسْعَةُ أَبْوَابٍ
خَمْسُ بَنَاتٍ	عَشْرَةُ رِجَالٍ

11dan 99 gacha bo'lgan adadlar ma'dudi ya'ni tamyizi mufrad bo'lib nasb o'qiladi.

11 dan 19 gacha bo'lgan adadlar murakkab adadlar deyiladi. Ya'ni bular ikki qismdan tashkil topadi.

11va 12 sonlari jinsda ya'ni muzakkar va muannaslikda ma'dudi bilan bir xil keladi.

أَحَدٌ عَشَرَ كَوَكَبًا	إِحْدَى عَشْرَةَ بِنْتًا
اثْنَا عَشَرَ قَلَمًا	اثْنَتَا عَشْرَةَ حَقِيبَةً

13 dan 19 gacha bo'lgan adadlarda o'sha adadning birinchi qismi ma'dud bilan teskari jinsda keladi. Ikkinchi qismi esa, ma'dudi bilan bir xil keladi.

أَرْبَعٌ عَشْرَةَ طَالِبَةً	تِسْعَةُ عَشَرَ طَالِبًا
سَبْعٌ عَشْرَةَ مَرِيضَةً	ثَلَاثَةٌ عَشَرَ مُعَلِّمًا

20-30-40-50-60-70-80-90 adadlari muzakkarda ham muannasda ham bitta lafz bilan keladi, ya'ni ma'dud muzakkar bo'lsa ham, muannas bo'lsa ham hech qanday o'zgarish bo'lmaydi.

خَمْسُونَ كَاتِبًا	خَمْسُونَ كَاتِبَةً
--------------------	---------------------

سَبْعُونَ عَالِمًا	سَبْعُونَ عَالِمَةً
تِسْعُونَ مُوظَّفًا	تِسْعُونَ مُوظَّفَةً

21 dan 99 gacha:

Bu adadlarni الأعداد المعطوفة (al-a'dadul ma'tufa) deb ataladi. Ya'ni bu sonlarda birlik va o'nlik orasini bog'lash uchun و (vav atifa) ishtirok etadi. Shuningdek bu sonlarning o'nlik qismi emas, birlik qismlari ma'dudi bilan moslashadi yoki ziddi bo'lib keladi.

1 va 2 adadlari muzakkar muannaslikda doimo ma'dudi bilan bir xil keladi. (1 – 2, 11 – 12, 21 – 22, 31 – 32, 41 – 42...)

وَاحِدٌ وَأَرْبَعُونَ مِثْرًا	وَاحِدَةٌ وَعِشْرُونَ سَفِينَةً
اِثْنَانِ وَسِتُّونَ وَرَقًا	اِثْنَانِ وَخَمْسُونَ حَقِيبَةً

3 dan 9 gacha bo'lgan sonlar ma'dudi bilan teskari jinsda bo'ladi.

خَمْسٌ وَعِشْرُونَ سَفِينَةً	ثَمَانِيَةٌ وَتِسْعُونَ بَابًا
سَبْعٌ وَسَبْعُونَ شَجَرَةً	سِتَّةٌ وَثَمَانُونَ قَمِيصًا
ثَلَاثٌ وَخَمْسُونَ مَكْتَبَةً	ثَمَانِيَةٌ وَثَمَانُونَ صَدِيقًا

100 va 200, 1000 va 2000 adadlari ma'dudi ya'ni tamyizi mufrad holatda bo'lib jar o'qiladi. Ushbu sonlar xuddi (20,30,40...) kabi muzakkar muannaslikda bir xil holatda keladi.

مِئَةُ دِينَارٍ	مِئَةُ صُورَةٍ
مِئَتَا رَجُلٍ	مِئَتَا بِنْتٍ
أَلْفُ كِتَابٍ	أَلْفُ وَرْدَةٍ
أَلْفَا طَالِبٍ	أَلْفَا طَالِبَةٍ

Eslatma: Aslida مِئَتَانِ va أَلْفَانِ bo'lgan. Nahvdagi izofa qoidasiga ko'ra nunlar tushirib qoldirilgan.

ثَلَاثُ مِئَةٍ	3000	ثَلَاثَةُ أَلْفٍ	300
أَرْبَعُ مِئَةٍ	4000	أَرْبَعَةُ أَلْفٍ	400
خَمْسُ مِئَةٍ	5000	خَمْسَةُ أَلْفٍ	500
سِتُّ مِئَةٍ	6000	سِتَّةُ أَلْفٍ	600
سَبْعُ مِئَةٍ	7000	سَبْعَةُ أَلْفٍ	700
ثَمَانُ مِئَةٍ	8000	ثَمَانِيَةُ أَلْفٍ	800
تِسْعُ مِئَةٍ	9000	تِسْعَةُ أَلْفٍ	900

Ushbu jadvalda ko'rib turganimizdek mingliklar birlik sonlardan keyin kelib jam bo'lib jar o'qilyapti. Xuddi 3 dan 10 gacha bo'lgan adadlarning ma'dudi kabi yoziladi. Xulosa qilib olganda, asosiy qoidalar yuqorida zikr etildi. Keyingi katta sonlar shu birlik, o'nlik sonlari ma'dudi kabi hukmlar bilan hosil qilinadi.

سِتَّةَ عَشَرَ أَلْفًا	16000
ثَلَاثَةٌ وَخَمْسُونَ أَلْفًا	53000
أَرْبَعُ مِئَةِ أَلْفٍ	400000

Qoida: Million va milliard sonlarining hukmi ming (أَلْفٌ) sonining hukmlari bilan bir xil bo'ladi.

Yuqorida son haqida o'rganib chiqilgan ma'lumotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, arab tili nuqtai nazaridan sonlar o'z gramatik strukturalariga ega bo'lgan keng tarmoqli bo'lim hisoblanadi. Ularda jins kategoriyasi (muzakkar, muannas), son kategoriyasi (birlik, ikkilik, ko'plik), kelishik kategoriyasi (bosh, tushum, qaratqich kelishigi) va holat kategoriyalari (aniq, noaniq) mavjud. 11 va 12 sonlari o'z sanalmishi bilan bir xil jinsda kelsa, 13 dan 19 gacha bo'lgan sonlar esa sanalmishga nisbatan teskari jinsda ishlatilishi grammatik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Albatta ularni tilning o'ziga xos xususiyatlaridan bir namuna desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Usmonov A. Arab tilidagi sanoq va tartib sonlar. – Toshkent, 2018.
2. <https://youtu.be/VjF3OsfZbAQ?si=7d9-szi-9XZaXsU7>
3. https://youtu.be/E5brndX1_8A?si=LVaiTjlORYJh42aT
4. النحو العربي [الجزء الثاني] الدكتور محمد فاضل صالح السامرائي
5. الدروس النحوية (فضيلة الشيخ محمد علي البجنورى القاسمي)
6. <https://arabic.ba/>